

**D.A. Raximdjanov**  
**O.K. Ernazarov**

**DINSHUNOSLIKKA**  
**KIRISH**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

D.A.Raximdjanoʻv,  
O.K.Ernazarov

**DINSHUNOSLIKKA  
KIRISH**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan oliy o‘quv yurtlarining 5120600 – Dinshunoslik ta‘lim  
yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

«O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti  
TOSHKENT – 2018

UO'K: 291(075.8)

KBK: 86.2

R 33

**Raximdjanov, D.**

**P33 Dinshunoslikka kirish** [Matn]: o'quv qo'llanma / D.Raxim-djanov, O.Ernazarov. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 304 b.

UO'K: 291(075.8)

KBK: 86.2

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining «2016–2017-o'quv yilidan oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirish va fanlarning zamonaviy o'quv adabiyoti ta'minotini yaratish maqsadida xorijiy o'quv adabiyotlarini tarjima qilish» bo'yicha buyrug'i doirasida yaratildi.

Mazkur kitob oliy ta'lim tizimi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, Respublika oliy o'quv yurtlarida «Dinshunoslikka kirish», «Ma'naviyat asoslari», «Dinshunoslik» va «Dunyo dinlari tarixi» fanlarini o'qitishda o'quv qo'llanma, shuningdek, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi hududiy bo'limlari, xotin-qizlar qo'mitalari mas'ullari, mahalla faollari uchun yordamchi qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaninig 6405-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

#### **Taqrizchilar:**

**N.A. Muxamedov** — O'zXIA «Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish YUNESKO» kafedrası dotsenti, t.f.n.

**Sh.O. Madayeva** — O'zMU «Falsafa va mantiq» kafedrası dotsenti, f.f.d.

ISBN 978-9943-5489-5-4

23789/1

© «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.

## KIRISH

Ijtimoiy-ma'naviy hayot, milliy va demokratik taraqqiyotning uyg'unligi, millat va mamlakatning yuksalib, dunyoga yuz tutish jarayoni yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, tafakkur tarzi, milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishdagi ko'nikma va bilimlariga chambarchas bog'liq. Zero, dinni xolis, ilmiy tadqiq etish, uni yaxlit ijtimoiy fenomen sifatida o'rganish uning bugungi holati va din bilan bog'liq masalalarni tizimli tahlil qilish va istiqbolini belgilash imkonini beradi. Dinshunoslik fanini o'rganishga kirishishda sohaga oid asosiy tushunchalar bilan yaqindan tanishish, uning dolzarb muammolaridan boxabar bo'lish dinni o'rganishda to'g'ri yondashuvning shakllanishiga asos bo'ladi.

«Dinshunoslikka kirish» fani bo'lajak dinshunos mutaxassislar uchun mo'ljallangan maxsus kurs bo'lib, unda din bilan bog'liq ma'lumotlarni xolis, ilmiy tahliliy tadqiq etish ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Zero, din dinshunoslik fanining o'rganish obyekti bo'lish bilan birga, har bir kishining e'tiqodi hamdir. E'tiqod masalasiga esa turli din vakillari orasida e'tiroz va norozilik paydo bo'lmasligi uchun hurmat va e'tiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarda din haqida xolis, to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish, turli dinlarning kelib chiqishi, mazmun-mohiyati, ta'limoti va tarixi haqida umumiy ilmiy tushunchalar berishdan iborat. Shuningdek, talabalarda din va uning turli shakllari, ta'limoti, yo'nalishi va oqimlari haqida xolis ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, vijdon erkinligi talablariga amal qilish mezonlarini to'g'ri belgilash, milliy va diniy qadriyatlar uyg'unligining o'ziga xos jihatlarini talabalar ongiga singdirishdan iborat.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun talabalarga dinshunoslik fanining dinni o'rganishdagi yondashuvlari, dinshunoslikning sohalari, fanning asoschilari, dinshunoslikning boshqa sohalari bilan o'zaro aloqalari haqida aniq va atroflicha ma'lumot berish

talab etiladi. Bo'lajak dinshunoslar mutaxassislik fanini o'rganishga kirishishdan oldin dinning jamiyat va insonlar ichki dunyosida tutgan o'rni, uni o'rganishda nimalarga e'tiborni qaratish kerakligini bilishlari lozim bo'ladi. Dunyoda mavjud dinlarga xos bo'lgan umumiy va xususiy jihatlarni tahliliy o'rganish qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo hududida VIII asrdan boshlab islom dini mahalliy xalqlarning asosiy e'tiqodi bo'lib qoldi. Shu sababli ham uning shaxs, oila, jamiyat hayotida tutgan o'rni, o'lka madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shgan hissasi haqida yoshlarni xolis, ilmiy asosdagi ma'lumotlar bilan qurollantirish ularda g'oyaviy immunitetning mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Ushbu fanni o'qitish mobaynida milliy va diniy qadriyatlarining tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlariga uyg'unlashishi, hozirgi mustaqil O'zbekiston sharoitidagi ahamiyati yoritib beriladi. Fanni o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»-gi Qonun, Jinoyat, Fuqarolik, Oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

«Dinshunoslikka kirish» fanini o'qitish va o'rganishda quyidagilarga alohida e'tiborni qaratish talab etiladi:

– chuqur ilmiylik, tarixiylik, xolislik tamoyillariga amal qilish;

– talabalarning diniy ong darajasini hisobga olish, diniy his-tuyg'ulariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish;

– dinni qo'pol ateistik ruhda tanqid qilish yoki diniy va'z-xonlik qilish, bir dinni ikkinchi dindan ustun qo'yish qonunga zid ekanligini e'tibordan chetda qoldirmaslik;

– dinshunoslikdan ma'ruza, amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonida faqat o'quv qo'llanmadagi ma'lumotlar bilan chegaralanmasdan, balki birlamchi